TEMURIYLAR VA SHAYBONIYLAR SAROY SHOIRLARI QARASHLARIDA SHAYBONIYXON SHAXSIYATI

Yusupova Sadokat Alijon qizi
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti, Filologiya,

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola mumtoz adabiyotimiz yorqin vakillaridan biri Kamoliddin Binoiyning hamda Muhammad Solihning hukmdor Sulton Muhammad Shayboniyxonga bag‘ishlab yozgan “Shayboniynoma” asari hamda Shayboniyxon saroyidagi faoliyatiga bag‘ishlanadi. Mavlono Binoiy hamda saroy shoiri Muhammad Solihning Shayboniyxon saroyida xizmat qilganliklari, ularning fors-tojik tilida ijod qilganliklari ushbu maqolada yoritiladi. Shu jumladan, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostonlari tahlili o‘rganilib, maqola tarixiy-badiiy faktlar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Sulton Muhammad Shayboniyxon, Bobur, Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, “Shayboniynoma”, saroy shoiri, she’riy bahslar, qasidalar, temuriylar, shayboniylar, ruboiy.

ЛИЧНОСТЬ ШЕЙБАНИ-ХАНА В ВОСПРИЯТИИ ПРИДВОРНЫХ ПОЭТОВ ТИМУРИДОВ И ШЕЙБАНИДОВ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ.

АННОТАЦИЯ

Данная научная статья посвящена одному из ярких представителей нашей классической литературы Камолиддину Бинаю и произведению Мухаммада Салиха «Шайбанийна», посвященному правителю Султану Мухаммаду

Шайбани-хану, и его работе во дворце Шайбани-хана. В данной статье описывается служба Мауланы Бинаи и придворного поэта Мухаммада Салиха при дворе Шайбани-хана и их произведения на персидско-таджикском языке. Среди них исследуется анализ эпосов «Шайбанинаме» Камолиддина Бинама и «Шайбанинаме» Мухаммада Салиха, а также раскрывается статья на основе исторических и художественных фактов.

Ключевые слова: Султан Мухаммад Шайбани-хан, Бабур, Камолиддин Бинай, Мухаммад Салих, «Шайбанинаме», придворный поэт, поэтические диспуты, оды, Тимуриды, Шайбаниты, рубаи.

THE PERSONA OF SHAYBANI KHAN IN THE PERSPECTIVES OF TIMURID AND SHAYBANID COURT POETS: A COMPARATIVE ANALYSIS.

Annotation. This scientific article is dedicated to one of the bright representatives of our classical literature, Kamoliddin Binai, and Muhammad Salih's work "Shaibaniyna" dedicated to the ruler Sultan Muhammad Shaibani Khan, and his work in Shaibani Khan's palace. This article describes the service of Maulana Binai and the court poet Muhammad Salih in the Shaybani Khan court and their works in the Persian-Tajik language. Among them, the analysis of Kamoliddin Binai's "Shaibaniname" and Muhammad Salih's "Shaibaniname" epics are studied, and the article is revealed on the basis of historical and artistic facts.

Key words: Sultan Muhammad Shaibani Khan, Babur, Kamoliddin Binai, Muhammad Salih, "Shaibaniname", court poet, poetic debates, odes, Timurids, Shaibanis, rubai.

Shoh va shoir, buyuk sarkarda, shayboniylar sulolasi asoschisi, Sulton Muhammad Shayboniyxonning hayot va ijod yo‘li o‘rganishga bo‘lgan qiziqish hamon

Sharq va G‘arb tarixchi, adabiyotshunos olimlari tomonidan ulkan qiziqish va tortishuvlarga sabab bo‘lib kelmoqda. Muhammad Shayboniyxon Markaziy Osiyo tarixida ilm-ma’rifatga alohida burilish yasagan shaxslardan biri bo‘lib, u o‘sha davrgacha shakllangan ilmiy muhit, yaratilgan ilmiy-badiiy asarlar, forsiy tildagi hujjat almashinuv va ilmiy-adabiy til muhitini turkiylashtirishga hissa qo‘shgan. Sulton ko‘plab ilm ahli vakillariga yordam berib, ularni moddiy jihatdan qo‘llaydi. Xususan, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Ro‘zbehxon Isfahoniy, Mulla Shodiy kabi bir qancha tarixchi va adabiyotshunos olim-u fuzalolarga homiylik qilib, Movarounnahrda turkiy tildagi tarixiy-badiiy asarlar soni ko‘payishiga turtki bo‘lgan. Bu kabi yaratilgan asarlarda Shayboniyxon timsolini tarixiy, adabiy jihatdan o‘rganish orqali Muhammad Shayboniyxon hayoti va ilmiy faoliyati yuksak baholanadi, uning shaxs va ijod masalalari ham keng tadqiq etiladi. Har bir davrning o‘z qahramonlari bo‘lib, ulardan kelgusida yosh avlodni tarbiyalashda mardlik, Vatanga sadoqat, mehr-muhabbat, do‘stlik xislatlari namuna bo‘lib xizmat qila oladi. O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo‘lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bugungi kunda Muhammad Shayboniyxon singari shoir, sarkarda, davlat arbobining hayoti va faoliyati mukammal aks etgan, qolaversa, o‘tmish tarixiy voqeyligi to‘la bayon etilgan asarlarni yangicha nuqtai nazardan o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Kamoliddin Binoiy temuriy hukmdorlar saroyida Sulton Husayn Boyqaro va Sulton Ya’qub Oqqo‘yunli saroylarida samarali xizmat qilgan, o‘z o‘rniga ega bo‘lgan saroy shoiri hisoblanadi. Kamoliddin Binoiy o‘zbek xoni Muhammad Shayboniyxonning harbiy safarlarida ham hamrohlik qilib, Sulton bilan doimiy she’riy bahslar, mushoiralar o‘tkazgan. Samarqandda ma’lum muddat Bobur Mirzo saroyidagi adabiy majlislarda ham Binoiy ishtirok etganligi haqida tarixiy ma’lumotlar mavjuddir.

Bizgacha ma’lumki, mumtoz adabiyotimiz yorqin vakillaridan biri, shoir, tarixchi haamda musiqashunos olim Kamoliddin Ali ibn Muhammad Sabz Binoiy (1453-1512) davrlarda yashab ijod etgan bo‘lib, hayot yo‘li davomida asosan uch hukmdor – Sulton Husayn Boyqaro, Sulton Ya’qub Oqqo‘yunli hamda Muhammad Shayboniyxon saroylarida xizmatda bo‘lgan. Mavlono Binoiy sermahsul shoir bo‘lib, 3 ta devon tartib qilgan. Shoir “Behro‘z va Bahrom” dostoni, “Majma’ ul-g‘aroyib” (“Ajoyib voqealar majmu’i”) qasidasi hamda “Shayboniynoma” va “Futuhoti xoniy” (“Xonning g‘alabalari”) tarixiy-badiiy asarlar yaratgan. Binoiyning hayoti va ijodi asosan saroyda o‘tgan va o‘z qasidalarida ko‘plab hukmdorlarni madh etgan. Sulton Shayboniyxon haqida ma’lumot beradigan asarlar sirasiga Kamoliddin Binoiyning forschada yozilgan “Shayboniynoma” dostoni, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” kabi dostonlari kiradi. “Buxoro yohud Movorounnahr tarixi” kitobida Herman Vamberi bu haqda shunday yozgan: “Keyinchalik Movarounnahrga ketib, Sulton Mahmud saroyi doirasida e’tibor qozongan va nihoyat, Shayboniy Muhammadxon uni saroy shoiri qilib olgan”. [Herman Vamberi, 1990: 73]. Binoiy Shayboniyxon bilan ko‘plab mushoiralar uyushtirgan. Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma” dostoni Shayboniylar sulolasi tarixiga oid dastlabki ilk manbalardan biri bo‘lib, ushbu doston 1505-1507-yillarda Muhammad Shayboniyxonning xizmatida bo‘lgan paytda Kamoliddin Binoiy tomonidan yaratilgan. “Shayboniynoma” dostonida “Tavorixi guzidayi nusratnoma” negizida fors tilining nozik iboralari va fasohat ilmidan keng foydalanilgan. Doston Muhammad Shayboniyxon va uning o‘g‘li nazorati ostida yozilgan bo‘lib, dostonining nusxalari ko‘p, ulardan biri xorazmlik tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan o‘zbek tiliga 1914-1915-yillarda tarjima qilingan nusxasi hisoblanadi. Asarda Muhammad Shayboniyning tavallud kunidan boshlab to 1505-yilgacha, Shayboniyxon Movarounnahr va Xorazm bo‘ysundirishga

qadar bo‘lib o‘tgan voqealar tarixan hikoya qilinadi. [Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi:metodik qo‘llanma. Toshkent: Bayoz, 2021-264-b.] Akademik Bo‘riboy Ahmedovning yozishicha, Sharqshunoslik institutida 844-raqamda saqlanayotgan yagona nusxa hisoblangan bu nusxa (hammasi bo‘lib 41 varaqdan iborat, hajmi 22X 31,5 sm; chiroyli nasta’liq xatida) noyob nusxa hisoblanadi va Shayboniyxonning shaxsiy kotibi Mirza Muhammad Munshiy tomonidan ko‘chirilgan. Shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, uning ba’zi varaqlarini (3a, 24 a, 31 a va b.q) Muhammad Shayboniyxon o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan... “Shayboniynoma”ning noma’lum naqli hajm jihatdan 844-raqamli nusxadan ikki barobar ziyod (104 varaq) va “Futuhoti xoniy” (“Xonning fathlari”) deb atalib kelingan...

Shayboniyxon haqida ikkinchi tarixiy-badiiy faktlar asosida yaratilgan asarlardan biri bu Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostoni hisoblanadi. “Shayboniynoma” – tarixiy asar bo‘lib, shayboniylar sulolasi tarixiga oid dastlabki tarixiy-badiiy manbalar jumlasiga kiradi. Dostonda Sulton Shayboniyxonning temuriylarga qarshi olib borgan harbiy yurishlari tasviri ifodalanib, asar 76 bob, 8902 misrani tashkil etadi. Doston muqaddimasi 16 bobdan tashkil topgan bo‘lib, unda hamd va na’t 1-3-boblardan iboratligini ko‘rishimiz mumkin. Dostonning 4-bobi so‘z ta’rifiga bag‘ishlanib, Shayboniyxon shaxsiyati tasviri va ta’rifi 5-14-boblarni o‘z ichiga oladi. Ushbu dostonda1499-1500, 1505-1506-yillarda ro‘y bergan tarixiy voqealar bayon etilgan bo‘lib, qonli kurashlarning shohidi va ishtirokchisi bo‘lgan Muhammad Solih o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, o‘zi qatnashgan voqealarini real faktlar asosida bayon qilganligining guvohi bo‘lamiz. Muhammad Solih asarda Shayboniyxon shaxsiyatini yuksak mahorat bilan yoritadi, Sultonni ulug‘lab, uning Bobur va boburiylar saltanati bilan o‘rnatgan strategik, iqtisodiy, madaniy aloqalarning yetarlicha o‘rnatilganligini hamda quda-andachilik munosabatlari ham yaxshi ekanligi

haqida ma’lumotlar keltirilib o‘tganligining guvohi bo‘lamiz. Muhammad Solih Shayboniyxonning ilm-ma’rifatga bo’lgan e’tiborini yuksak baholab, xalqni ziyoli qilish uchun har qancha molu-davlatini ayamasligini ham keltirib o‘tadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Руспубликаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг Андижон вилояти «Боғи Бобур» истироҳат масканида сўзлаган нутқидан. 05.06.2017.

2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Фан, 2019. – 5 б.

3. Muhammad Solih. Shayboniynoma. –T.: O‘zSSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. – 320 b.

4. D’Herbelot, Babur ou Babor, - Bibliotheque orientale. Paris, 1697. p.163.

5. Herman Vamberi. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. – T.: G‘.G‘.ulom nomidagi ASN, 1990. -B 73.

6. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi:metodik qo‘llanma. Toshkent: Bayoz, 2021-264-b.

7. O‘zbek adabiyoti tarixi, 3-jild. Toshkent: Fan.1984.

8. N.M.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: “O‘qituvchi”,1976.

9. Sabtelni, M. The poetic circle at the court of Timurid Sultan Husain Baiqara and its political significiance. – Harward, 1979.

10. Qorayev Sh. O‘zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya. – T.: Ilm-fan va ma’naviyat, 2024. – B.310. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. Monografiya